

**“Ipoteka-bank” ATIB
Boshqaruvi yig‘ilishining
194 sonli bayoni**

Toshkent sh.

12.09.2023

Raislik qildi:

E.Inomjonov

**“Ipoteka-bank” ATIB
Boshqaruvi Raisi**

Boshqaruv a‘zolari:

Qatnashdilar:

**A.A.Szentpeteri , V.Vorobey,
D.Sapronov, (MT)F.Botirov,
D.Zulfukarov, M.Abduraxmanov,
N.Rahbarov, J.Xayrullayev,**

Taklif etilganlar:

A.Namozov,

Yig‘ilish kotibi:

B.Ushbayev

Yig‘ilish kvorumi:

80 %

Kun tartibi:

1. "Imkon-Sug‘urta" aksiyadorlik jamiyati Kuzatuv kengashi va Taftish komissiyasi a‘zolarining vakolatlarini muddatidan oldin tugatish, Kuzatuv kengashining yangi a‘zolarini saylash, Taftish komissiyasi faoliyatini tugatish hamda yangi tahrirdagi Ustavini tasdiqlash.

2. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2023 yil 17 avgustdagi 44/2-15787-sonli xatini inobatga olgan holda "Imkon-Sug‘urta" aksiyadorlik jamiyatining 2022 yil faoliyati yakuni bo‘yicha sof foydasini taqsimlash hamda ustav fondini (ustav kapitalini) qo‘shimcha aksiyalarni joylashtirish yo‘li bilan o‘z kapitali hisobidan ko‘paytirish, qo‘shimcha aksiyalarini chiqarish haqida qaror qabul qilish, qo‘shimcha chiqarilayotgan aksiyalarining joylashtirish tartibi va muomalaga kiritish shartlarini belgilash va Aksiyalar qo‘shimcha chiqarilishi to‘g‘risidagi qarorini tasdiqlash.

(E.Inomjonov, A.Namozov, E.Inomjonov)

1. "Imkon-Sug‘urta" AJ (keyingi o‘rinlarda - Kompaniya) yagona aksiyadori "Ipoteka-bank" ATIBning (keyingi o‘rinlarda – Bank) 2023 yil 14 avgustdagi 03/8204-sonli xati bilan quyidagilar so‘ralgan:

- Kuzatuv kengashining joriy tarkibi faoliyatini tugatish va yangi tarkibni tasdiqlash;
- Taftish komissiyasi faoliyatini tugatish;
- ustavda belgilangan Taftish komissiyasi faoliyatini tugatish va shu munosabat bilan ustavga tegishli o‘zgartirish kiritish;

Kompaniyaning amaldagi 5 nafar Kuzatuv kengashi a‘zolari – A.Muxitdinov, D.Usmonova, R.Umarov, A.Egamberdiev va A.Kalandarovlarning vakolatlarini tugatish.

Kompaniya Kuzatuv kengashi a‘ziligiga 3 (uch) yil muddatga quyidagi nomzodlarni saylash taklif etilmoqda:

- 1) Zoltan Molnar (Zoltán György Zoltan Molnár) – OTP Bank, M&A katta menejeri;
- 2) Dmitriy Sapronov (Dmitriy Sapronov) – Bank Boshqaruv Raisi o‘rinbosari – Kichik biznes va chakana xizmatlar bloki rahbari;

3) Umid Babaxanov (Umid Babakhanov) – Bankning Investorlar bilan aloqalar xizmati rahbari o‘rinbosari;

4) Anton Yashin (Anton Yashin) – Risklarni tahlil qilish va modellashtirish departamenti direktori.

Shuningdek, Kompaniyaning Taftish komissiyasi faoliyati tugatilishi taklif etilmoqda.

Kompaniya Ustaviga tegishli o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritilib, yangi tahrirdagi Ustavni 1-ilovaga muvofiq tasdiqlash taklif etilmoqda.

2. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi (keyingi o‘rinlarda - Vazirlik) yo‘llagan 2023 yil 17 avgustdagi 44/2-15787-sonli xatida Kompaniya qimmatli qog‘ozlar chiqarilishini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish to‘g‘risidagi 2023 yil 20 iyuldagi 04/527-sonli arizasi ko‘rib chiqilib, aniqlangan xato va kamchiliklar amaldagi qonunchilik asosida bartaraf etilgandan so‘ng, qo‘shimcha aksiyalar chiqarilishini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish bo‘yicha ariza qayta ko‘rib chiqilishi ma‘lum qilingan. Jumladan, quyidagi xato va kamchiliklar ko‘rsatib o‘tilgan:

- aksiyalarni joylashtirish amalga oshiriladigan bozorlar ko‘rsatilmaganligi;

- chiqarilayotgan aksiyalar davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan kundan boshlab 30 kundan kechiktirilmagan kunga shakllantirilgan aksiyadorlar reestrda ko‘rsatilgan Kompaniya aksiyadorlari o‘rtasida joylashtirilishini inobatga olinib, O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari va norezidentlari bo‘lgan jismoniy shaxslarning (aksiyadorlarning) aksiyalar bo‘yicha dividendlar tarzidagi daromadlari jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan ozod qilinganligi va ularning huquqlari va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlari inobatga olinmaganligi.

Kompaniya 2022 yildagi faoliyati yakuniga ko‘ra 9 625 339 971,14 so‘m sof foyda olgan.

"TRANS-AUDIT-A" MChJ auditorlik tashkiloti tomonidan Kompaniyaning 2022 yil uchun moliyaviy hisoboti ishonchligi haqida 2023 yil 1 maydagi mustaqil auditorning auditorlik xulosasi berilgan.

Kompaniya faoliyatining 2022 yil yakunlari bo‘yicha yillik hisoboti, jumladan buxgalteriya balansi, moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisoboti va auditorlik tashkilotining xulosasi yagona aksiyadori Bank Boshqaruvining 2023 yil 26 iyundagi 153-sonli qarori bilan tasdiqlangan.

Kuzatuv kengashi tomonidan Kompaniyaning 2022 yil faoliyati yakuni bo‘yicha 9 625 339 971,14 so‘m sof foydasidan:

qonunchilik talablariga muvofiq 5 foizdan kam bo‘lmagan miqdorda 17,98 foiz yoki 1 730 603 129,03 so‘mni zaxira fondiga;

qolgan 82,02 foiz yoki 7 894 736 842,11 so‘mni, shundan qonunchilikka muvofiq soliq solishdagi 394 736 842,11 so‘m yoki 5 foizdan tegishincha O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari va norezidentlari bo‘lgan yuridik shaxs aksiyadorlarining dividend tarzidagi daromadlari bo‘yicha foyda solig‘ini to‘lov manbaidan to‘lashga va O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari va norezidentlari bo‘lgan jismoniy shaxs aksiyadorlarining dividend tarzidagi daromadlari qonunchilikka muvofiq daromad solig‘idan ozod etilganligini inobatga olinib ularga to‘lab berishga hamda 7 500 000 000,00 so‘m ustav fondni (ustav kapitalni) qo‘shimcha aksiyalarni joylashtirish yo‘li bilan o‘z kapitali hisobidan ko‘paytirishga yo‘naltirish to‘g‘risida tavsiya berilgan.

Hozirda Kompaniyaning shakllangan ustav fondi (ustav kapitali) miqdori 45 mlrd. so‘mni tashkil etib, nominal qiymati 1 so‘m bo‘lgan egasining nomi yozilgan hujjatsiz shakldagi 45 mlrd. dona oddiy aksiyalardan iborat. Mazkur aksiyalar Kompaniyaning yagona aksiyadori Bankka joylashtirilgan.

Kompaniya Ustavining 11.21-bandida ustav fondnini (ustav kapitalni) oshirish maqsadida, joylashtirilgan aksiyalarga qo‘shimcha ravishda joylashtirishga haqli bo‘lgan e‘lon

qilingan aksiyalarning miqdori nominal qiymati 1 so'mlik 10 938 747 108 dona umumiy qiymati 10 938 747 108 so'm bo'lgan, egasining nomi yozilgan, hujjatsiz shakldagi, oddiy aksiyalardan iboratligi belgilangan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, jumladan Vazirlikning xatini inobatga olgan holda Kompaniya ustav fondini (ustav kapitalini) ko'paytirish, chiqarilayotgan aksiyalarining joylashtirish tartibi va muomalaga kiritish shartlarini belgilash hamda Aksiyalar qo'shimcha chiqarilishi to'g'risidagi qarorini (matni 2-ilovada keltiriladi) tasdiqlash va ushbu qarorni qonunchilikda belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazish taklif etilmoqda.

Yuqorida bayon etilganlarni, shuningdek Kompaniya yagona aksiyadori Bank ekanligini hamda O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni 58-moddasi va Kompaniya Ustavi 17.7-bandiga muvofiq Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi vakolatiga kiritilgan masalalar bo'yicha qarorlar barcha oddiy aksiyalarga egalik qiluvchi yagona aksiyador tomonidan yakka tartibda qabul qilinishini inobatga olib,

Boshqaruv qaror qiladi:

1.1. Kompaniyaning quyidagi Kuzatuv kengashi a'zolarining vakolatlari muddatidan oldin tugatilsin:

- 1) Muxitdinov Aziz Akbarovich – Bankning Moliya bloki rahbari;
- 2) Usmonova Dilafruz Aminovna – Bankning Investitsion faoliyatni muvofiqlashtirish markazi direktori;
- 3) Umarov Ravshanbek Anvarovich – Bankning Plastik kartalar departamenti direktori;
- 4) Egamberdiev Azizbek Mirzakarimovich – Bankning Yuridik departament direktori o'rinbosari;
- 5) Kalandarov Aziz Djalaliddinovich – Bankning Kredit administratsiyasi markazi direktori.

1.2. Kompaniya Kuzatuv kengashining yangi a'zolari etib quyidagi nomzodlar 3 (uch) yil muddatga saylansin:

- 1) Zoltan Molnar (Zoltan Molnar) – OTP Bank, M&A katta menejeri;
- 2) Dmitriy Sapronov (Dmitriy Sapronov) – Bank Boshqaruv Raisi o'rinbosari – Kichik biznes va chakana xizmatlar bloki rahbari;
- 3) Umid Babaxanov (Umid Babakhanov) – Bankning Investorlar bilan aloqalar xizmati rahbari o'rinbosari;
- 4) Anton Yashin (Anton Yashin) – Risklarni tahlil qilish va modellashtirish departamenti direktori.

1.3. Kompaniyaning quyidagi Taftish komissiyasi a'zolarining vakolatlari muddatidan oldin tugatilsin:

- 1) Narimov Farxod Ravshanovich – Bankning Moliyaviy hisobot va nazorat departamenti direktori;
- 2) Xudoyberdiev Bobir Iskandarovich – Bankning Komplaens nazorat departamenti direktori;
- 3) Fayziev Ulugbek Ravshanovich – Bankning Risk hisobotlari va risk menejmenti instrumentlari bo'limi boshlig'i.

1.4. Bankning Taftish komissiyasi faoliyati tugatilsin va Bank Boshqaruvining 2022 yil 10 maydagi 133-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Taftish komissiyasi to'g'risida"gi Nizomi o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

1.5. Kompaniya Ustaviga 1-ilovaga muvofiq o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritilib, Kompaniya yangi tahrirdagi Ustavi tasdiqlansin va uni tasdiqlanganligi bo'yicha imzolash huquqi Bank Boshqaruv raisi o'rinbosari A.Sentpeteriga berilsin.

2.1. Kompaniya faoliyatining 2022 yil yakunlari bo'yicha yillik hisoboti, jumladan buxgalteriya balansi, moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisoboti va auditorlik tashkilotining xulosasi yagona aksiyadori Bank Boshqaruvining 2023 yil 26 iyundagi 153-sonli qarori bilan tasdiqlanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

Kompaniya yagona aksiyadori Bank Boshqaruvining 2023 yil 26 iyundagi 153-sonli qarorining Kompaniya 2022 yil faoliyati yakuni bo'yicha sof foydasini taqsimlash bo'yicha 5-masalasi yuzasidan 5-bandi hamda Kompaniya ustav fondini (ustav kapitalini) qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan o'z kapitali hisobidan ko'paytirish, qo'shimcha aksiyalarini chiqarish haqida qaror qabul qilish, qo'shimcha chiqarilayotgan aksiyalarining joylashtirish tartibi va muomalaga kiritish shartlarini belgilash hamda Aksiyalar qo'shimcha chiqarilishi to'g'risidagi qarorini tasdiqlash bo'yicha 6-masalasi yuzasidan 6-bandi bekor qilinsin.

Kompaniyaning 2022 yil faoliyati yakuni bo'yicha 9 625 339 971,14 so'm sof foydasi quyidagicha taqsimlansin:

a) 1 730 603 129,03 so'm yoki 17,98 foiz miqdorda zaxira fondiga yo'naltirilsin;

b) 7 894 736 842,11 so'm yoki 82,02 foiz, shundan qonunchilikka muvofiq soliq solishdagi 394 736 842,11 so'm yoki 5 foizdan tegishincha O'zbekiston Respublikasining rezidentlari va nerezidentlari bo'lgan yuridik shaxs aksiyadorlarining dividend tarzidagi daromadlari bo'yicha foyda solig'ini to'lov manbaidan to'lashga va O'zbekiston Respublikasining rezidentlari va nerezidentlari bo'lgan jismoniy shaxs aksiyadorlarining dividend tarzidagi daromadlari qonunchilikka muvofiq daromad solig'idan ozod etilganligini inobatga olinib ularga to'lab berishga hamda 7 500 000 000,00 so'm ustav fondni (ustav kapitalni) qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan o'z kapitali hisobidan ko'paytirishga yo'naltirilsin.

Kompaniya ustav fondining (ustav kapitalining) miqdori nominal qiymati 1 so'm bo'lgan 7 500 000 000 dona umumiy qiymati 7 500 000 000 so'mlik egasining nomi yozilgan oddiy hujjatsiz shakldagi qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan o'z kapitali, ya'ni taqsimlanmagan foydasi (2022 yil yakuni bo'yicha sof foydasi) hisobidan 45 000 000 000 so'mdan 52 500 000 000 so'mga yetkazilsin.

Kompaniyaning nominal qiymati 1 so'm bo'lgan 7 500 000 000 dona umumiy qiymati 7 500 000 000 so'mlik egasining nomi yozilgan oddiy hujjatsiz shakldagi qo'shimcha aksiyalari yopiq obuna orqali muomalaga chiqarilsin hamda mazkur qo'shimcha chiqarilayotgan aksiyalarning joylashtirish tartibi va muomalaga kiritish shartlari quyidagicha belgilansin:

1) Chiqarilayotgan aksiyalar davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan boshlab 5-kun (beshinchi kun) holatiga shakllantirilgan aksiyadorlar reestrda ko'rsatilgan Jamiyat aksiyadorlari o'rtasida ular egalik qilgan aksiyalar soniga va turiga mutanosib ravishda 6:1 koeffitsientda yopiq obuna usuli bilan joylashtiriladi;

2) Chiqarilayotgan aksiyalar davlat ro'yxatiga olingan kundan boshlab 30 (o'ttiz) kalendar kuni-davomida joylashtiriladi:

- aksiyalarni joylashtirishni boshlash sanasi – ushbu aksiyalar chiqarilishi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan boshlab 6-kun (oltinchi kun) hisoblanadi. Agar aksiyalarni joylashtirishni boshlash sanasi bank hisob operatsiyalari uchun dam olish kuniga to'g'ri kelsa, unda aksiyalarni joylashtirish keyingi birinchi ish kunida boshlanadi;

- aksiyalarni joylashtirishni tugatish sanasi – ushbu chiqarilishning so'nggi aksiyasi joylashtirilgan kun, biroq aksiyalarni joylashtirishni tugatish sanasi, ushbu aksiyalar davlat ro'yxatiga olingan kundan boshlab 30 (o'ttiz) kalendar kunidan oshmasligi lozim;

3) Chiqarilayotgan aksiyalar uyushmagan birjadan tashqari qimmatli qog'ozlar bozorida biror bir fuqarolik-huquqiy bitim (shartnoma) tuzilmasdan joylashtiriladi.

Aksiyalar joylashtirilishi jarayonida anderrayterlar jalb qilinishi ko'zda tutilmaydi;

4) Ushbu chiqarilishdagi joylashtirilayotgan aksiyalarni olishga bo'lgan imtiyozli huquq ko'zda tutilmagan;

5) Chiqarilayotgan aksiyalar nominal qiymati bo'yicha 1 (bir) so'mdan joylashtiriladi;

6) Aksiyalar uchun to'lovlar Emitentning 2023 yil 1 yanvar holatiga o'z kapitali, ya'ni taqsimlanmagan foydasi (2022 yil faoliyati yakuni bo'yicha sof foydasi) hisobidan qonunchilikda belgilangan tartibda buxgalteriya yozuvlarida tegishli o'tkazmalar o'tkazish orqali amalga oshiriladi;

7) Ushbu aksiyalar chiqarilishi amalga oshmagan deb topilgan taqdirda aksiyalar uchun to'langan mablag'lar 10 (o'n) kun davomida qonunchilikda belgilangan tartibda buxgalteriya yozuvlarida tegishli o'tkazmalar o'tkazish orqali to'liq qaytariladi.

2.2. Kompaniyaning Aksiyalar qo'shimcha chiqarilishi to'g'risidagi qarori 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin va uning tasdiqlanganligi bo'yicha imzolash huquqi Bank Boshqaruv raisi o'rinbosari A.Sentpeteriga berilsin.

2.3. Kompaniya Boshqaruv raisi A.Namozov zimmasiga Kompaniya aksiyalari qo'shimcha chiqarilishini qonunchilikda belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazishni ta'minlash vazifasi yuklatilsin.

3. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Kompaniya Kuzatuv kengashi zimmasiga yuklatilsin.

4. Mazkur Boshqaruv qarori bir vaqtning o'zida Kompaniya yagona aksiyadorining qarori ekanligi belgilansin.

Boshqaruv Raisi



E.Inomjonov

Boshqaruv a'zolari:

A.A.Szentpeteri



V.Vorobey



D.Sapronov



(MT)F.Botirov,

D.Zulfukarov




M.Abduraxmanov



N.Rahbarov

J.Xayrullayev




Yig'ilish kotibi:

B.Ushbayev



Taklif etilgan:

A.Namozov



Кузатув кенгашига сайланган шахсларнинг паспорт маълумотлари

Т/р	Ф.И.Ш.	Паспорт серия рақами	Ким томондан берилган	Паспорт берилган сана	Амал қилиш муддати	Яшаш манзили
1.	Золтан Молнар	BT 4690647	BELUGYMINISZT ERIUM	18.11.2022	03.06.2032	Венгрия
2.	Сапронов Дмитрий Андреевич	75 5101582	ФМС 77540	09.06.2017	09.06.2027	Россия Федерацияси
3.	Яшин Антон Владимирович	75 4153090	ФМСФМС012	14.01.2017	14.01.2027	Россия Федерацияси
4.	Бабаханов Умиджон Муратбаевич	AD 2939792	Тошкент вилоят	04.04.2023	03.04.2033	Тошкент ш.Чилонзор т. Наққошлик кўчаси, 11/7